



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 26.10.2022 г. № 452-2-35-ХТ/2022

между «AL ASAD SERVICE» МСНУ и Жондор туман ХТБ на общую сумму 299992010,00

Глава \_\_\_\_\_ 075  
Казначейский лицевой счёт \_\_\_\_\_ 100022860062467092100075052

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4232200			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь	299 992 010,00			299 992 010,00
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>299 992 010,00</b>			<b>299 992 010,00</b>

Всего 299992010,00 сум

Двести девяносто девять миллионов девятьсот девяносто две  
тысячи десять сум 00 тийин  
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 89997603,00 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в октябрь мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

\*Руководитель заказчика



М.П.

(подпись)

Х.Рахимов

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

А.Камолов

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения \_\_\_\_\_

(подпись)

Получил работник заказчика \_\_\_\_\_

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.



### Pudrat shartnomasi

“Al-Asad servis” MChJ (tashkilot, korxonasi nomi) keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi. O‘zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida Raxbar R.Saidov (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomondan va Jondor tuman xalq ta‘limi bo‘limi (korxonasi, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi, o‘zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida Mudiri X. Raximov (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

#### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma buyicha Pudratchi Buyurtmachining buyurtmasiga asosan Jondor tuman xalq ta‘limi bo‘limiga karashli 5-son umumiy o‘rta ta‘lim maktab binosini joriy ta‘mirlash, Buyurtmachi esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to‘lovni amalga oshirishni o‘z zimmlariga oladilar.

1.2. Ushbu shartnomaning umumiy summasi KKS xisobga olingan xolda 299 992 010 (Ikki yuz tukson tikkiz million tikkiz yuz tukson ikki ming un) so‘mni tashkil etadi.

#### SHARTNOMA BUYICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta‘mirlash ishlarining qiymati KKS xisobga olinganda **299 992 010 (Ikki yuz tukson tikkiz million tikkiz yuz tukson ikki ming un)** so‘mni tashkil etadi.

2.2. Ta‘mirlash ishlarining boshlanishi: Oldindan 30% tulov amalga oshirilgandan so‘ng.

2.3. Ta‘mirlash ishlarining tugashi vaqti 2022 yil 31 oktabr.

#### TA‘MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BO‘YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta‘mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko‘rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida ko‘rsatilgan avansni Pudratchi olgandan so‘ng ta‘mirlash ishlarini boshlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdagi “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to‘lashi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 241-sonli qaroriga asosan budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha summasi bir milliard so‘mgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan to‘lovni amalga oshirish nazarda tutiladi. Pudratchi mazkur karorga amal qilishi shart.

3.3. Buyurtmachi tomonidan ta‘mirlash ishlarini bajarish davrida Pudratchiga o‘zi tomonidan xarid qilingan ta‘mirlash materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Ta‘mirlashni to‘xtat qolganligi uchun sababchi bo‘lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

3.5. Ta‘mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so‘ng ta‘mirlash ishlari tamom bo‘lgan deb hisoblanadi.

#### TO‘LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo‘yicha ishlar budjetdan ko‘zda tutilgan mablag‘lar joriy qiymatining 30 foizi miqdorida oktabr oyida avans o‘tkazadi, bu 89 997 603 (Saakiz million tikkiz tukson yetti ming olti yuz uch so‘m ) so‘mni tashkil etadi, 70% ishlar bajarilganligini ta‘sdiglovchi hujjat taqdim qilgandan so‘ng ya‘ni (F-2, F-3) dalolatnomalari orqali ushbu tulovlar joriy yilning 31 oktabr kunigacha amalga oshiriladi.

4.2. Buyurtmachi to‘lovni pul o‘tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

4.3 Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos xisoblanadi.



4.4 Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

4.5 Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga kabul kilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan takdirida, Pudratchi bu xakda konun xujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod kilinmaydi.

#### 5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Shartnoma bahosi 299 992 010 (Ikki yuz tukson tukkiz million tukkiz yuz tukson ikki ming o'n) so'm bo'lgan ta'mirlash ishlari yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish.

5.2. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb kiladi.

5.3. Har haftaning dushanba kunida joriy haftada bajarilgan ta'mirlash montaj ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatlarni Buyurtmachiga taqdim kilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.4. Agar bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalariga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni, xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan ishlar va xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar va xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

5.5. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofik bajarilgan ishlar tugrisida 2-sonli dalolatnomani tuzadi.

#### 6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

6.1. Shartnomada kursatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, Buyurtmachi maxsus hisob-raqamidan xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning tulanmagan narxini 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi. Pudratchiga penya to'laydi.

6.2. Buyurtmachi ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

6.3. Buyurtmachi tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofik 2-sonli dalolatnomani Pudratchi bilan birgalikda tuzadi.

#### 7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda sodir etilishi va taraflarning bunga lozim darajada ma'sul bo'lgan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi. (Budjet tashkilotlari uchun G'aznachilik bo'linmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qaroriga muvofiq, majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi).

7.2. Shartnoma 1 yil muddatga tuzilgan bo'lib, muddati tugagach, taraflardan biri uni bekor qilish yoki o'zgartirish haqida murojaat qilmasa, shartnoma keyingi yil uchun uzaytirilgan hisoblanadi. (Budjetdan mablag' oluvchilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Budjet tizimi budjetlarning g'azna ijrosi Qoidalari"ga asosan amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha belgilanadi).

7.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

7.4. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;



- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.
- Fors-major holatlarida

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH

8.1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

8.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sudi tartibida hal qilinadi

8.3. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi, kelishish imkoni bo'lmaganda esa Buxoro viloyat iqtisodiy sudida hal qilinadi.

## 9. BOSHKa SHARTLAR

9.1 Mazkur Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va ko'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va xar ikkala taraflar orkali imzolanishi kerak.

## 10. KORRUPSIYAGA KARSHI TALABLAR

10.1 Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (davlat organi yoki tashkilotning nomi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi: pora berishni taklif qilish yoki va'da berish; tovlamachilik qilish; pora sifatida pul to'lash; bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

### "PUDRATCHI"

**"Al-Asad servis" MChJ**

(yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: Jondor tuman Aleli MFY

Tel./faks

H/r 20208000800807134001

Bank nomi ATB Kishlok kurilish bank

Jondor filiali

MFO 00115 INN 305097699

### "BUYURTMACHI"

**Jondor tuman tuman xalq ta'limi**

**bo'limi**

(budjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Jondor tuman Xalkobod kuchasi

28-uy

tel./faks 58-21-944

G'azna./h 23402000300100001010.

Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh.

XKKM

MFO 00014 INN 201807824

OKONX 92310

sh/h 100022860062467092100075052

Jondor tuman G'aznachilik bo'linmasi

Bank nomi. Markaziy bank Toshkent sh.

XKKM

MFO 00014 INN 201122919

Mudir.

Raximov

X.

Rahbar



R.Saidov

M.O.



M.O'.

-sonli shartnomaga

ILOVA

### Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (Jondor tuman xalq ta'limi bo'limi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi: pora berishni taklif qilish yoki va'da berish; tovlamachilik qilish; pora sifatida pul to'lash; bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (Jondor tuman xalq ta'limi bo'limi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir yetishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni 71 2070464

Telegram-kanali ("@antikorbot");

"PUDRATCHI"

"BUYURTMACHI"



**“Al-Asad servis” MChJ**  
(yetkazib beruvchining nomi)


Manzil: Jondor tuman Aleli MFY  
Tel./faks  
H/r 20208000800807134001  
Bank nomi ATB Kishlok kurilish bank  
Jondor filiali  
MFO 00115 INN 305097699

Rahbar




R.Saidov

**Jondor tuman tuman xalq ta'limi**  
**bo'limi**

(budjetdan mablag' oluvchining nomi)  
Manzil: Jondor tuman Xalkobod kuchasi  
28-uy tel./faks 58-21-944  
G'azna./h 23402000300100001010.  
Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh.  
XKKM  
MFO 00014 INN 201807824  
OKONX 92310  
sh/h 100022860062467092100075052  
Jondor tuman G'aznachilik bo'linmasi  
Bank nomi. Markaziy bank Toshkent sh.  
XKKM MFO 00014 INN 201122919  
Mudir.  X.Raximov  
M.O'.



	<b>Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan.</b> Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	XAYRIDDIN RAXIMOV BARRAYEVICH
	Imzolangan sana	26.10.2022 16:48
	Hujjat kodi	<b>BH12500525</b>
	Hulosa kodi	<b>DX8281000027</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

DX8281000027

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **PUDRAT ShARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Jondor tumani xalq ta'limi tomonidan 26.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Jondor tumani yuridik  
markazi  
bosh yuristkonsulti:



**SH.SH.JO‘RAYEV**

26.10.2022